Babadjanov Umidbek Kamildjanovich	
TURIZM – TARIXIY XOTIRA VA ZAMONAVIY XIZMATLAR UYG'UNLIGI IFODASI.....	773
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOHIYATI VA BAHOLASH MEZONLARI.....	777
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	784
Ro'ziyeva Shaxlo Salimboyevna	
AXBOROT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH.....	788
Samiyeva Maftuna Faxriddin qizi	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI DAROMADLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	791
Sanayev Javoxir Shovkat o'g'li	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	796
Maxmudov S.T.	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ КЛАСТЕРОВ.....	801
Юсупова Н.Т.	
SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY FAKTORLAR TAHLILI.....	807
Rahimova Mushtariybegim Muxammadg'olib qizi	
DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR VA ULARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI.....	812
Abdumalikova G.F.	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA SIYOSATINI SAMARALI BOSHQARISHNING IQTISODIY VA INSTITUTSION ASOSLARI.....	821
Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	
RAQAMLI AVIATSIYA EKOTIZIMI: AI/ML, DIGITAL TWIN VA BLOKCHEYN INTEGRATSIYASI.....	828
Azimova Moxinur Nozimovna	
XALQARO MOLIYA BOZORLARIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI.....	834
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATINING REKREATSIYA RESURLARI VA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI SALOHIYATI.....	839
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
MINTAQALAR TURISTIK-REKREATSION IMKONIYATLARINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY GIS USULLARINI QO'LLASH (SARIOSIYO TUMANI MISOLIDA).....	845
Safarov Manuchexr Axtam o'g'li	
XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	852
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
TURIZM FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHGA OID NAZARIY BILIMLARNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.....	857
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	



TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI MUSTAHKAMLIGINI BAHOLOVCHI KO'RSATKICHLAR TIZIMI	863
Raxmanov Iloxom Xurramovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	871
Maxsudov Sherzod Solijonovich	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	877
Mahmudov Sarvar	
ATROF-MUHITGA OID FISKAL KO'RSATKICHLAR ASOSIDA MINTAQAVIY BAHOLASH	882
Zilola Rahmatova	
XORAZM VILOYATI TUMANLARIDA EKSPORT SAMARADORLIGI: STOXAСТИK CHEGARAVIY TAHLIL (SFA) ASOSIDAGI EMPIRIK YONDASHUV	887
Fozil Xolmurotov	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ БЕДНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПОДХОДЫ И НАЦИОНАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА.....	900
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
EKOLOGIK VAZIYAT VA AHOLI SALOMATLIGINING PROGNOZ KO'RSATKICHLARI	905
Egamqulov Husniddin Erkaboyevich	
CHO'L HUDUDLARIDA TURISTIK RESURLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	911
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Mavlonov Ahmadjon Muhammadovich	
КОНЦЕПЦИЯ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ИЗМЕРЕНИЯ ЭФФЕКТОВ ЗАНЯТОСТИ В ЭКОЛОГО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	918
Сагидуллин Фарид Радикович	
ТРЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В СФЕРЕ ПРОДВИЖЕНИЯ И СБЫТА ТОВАРОВ И УСЛУГ В ИНДУСТРИИ ГОСТЕПРИИМСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	927
Бабаджанова Лола Шопулатовна	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	935
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich	
TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI	943
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
TA'LIM KLASTERLARI KONTEKSTIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA STRATEGIK YECHIMLARI: TRIPLE HELIX MODEL ASOSIDA TAHLIL.....	947
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI.....	954
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	960
Sirojiddinov Kamoliddin	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadridin o'g'li	



AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI



Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE.

Iqtisodiyot fakulteti "Menenjment" kafedrası o'qituvchisi.

husabeknasriddinov4@gmail.com

Annotatsiya. Agrotadbirkorlik faoliyati qishloq xo'jaligi resurslaridan oqilona foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash hamda eksport salohiyatini kengaytirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada agrotadbirkorlikning asosiy funksiyalari – iqtisodiy, ijtimoiy, innovatsion, ekologik va tashqi iqtisodiy vazifalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, rivojlanish qonuniyatlari – tabiiy omillarga bog'liqlik, bozor talabiga moslashuv, innovatsion yangilanish, integratsiya va davlat siyosatiga moslashuv qonuniyatlari asosida yoritiladi. Namangan viloyati tajribasi misolida agrotadbirkorlik faoliyatining amaliy natijalari va hududiy rivojlanishdagi o'rni ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: agrotadbirkorlik, qishloq xo'jaligi, iqtisodiy funktsiya, ijtimoiy funktsiya, innovatsion funktsiya, ekologik barqarorlik, tashqi iqtisodiy aloqalar, rivojlanish qonuniyatlari, bozor talabi.

Abstract. Agribusiness activities play an important role in the rational use of agricultural resources, ensuring food security, strengthening social stability, and expanding export potential. This article scientifically analyzes the main functions of agribusiness - economic, social, innovative, environmental, and foreign economic tasks. It also highlights the laws of development - dependence on natural factors, adaptation to market demand, innovative renewal, integration, and adaptation to state policy. The practical results of agribusiness activities and their role in regional development are shown using the example of the experience of the Namangan region.

Key words: agribusiness, agriculture, economic function, social function, innovative function, environmental sustainability, foreign economic relations, development laws, market demand.

Аннотация. Деятельность агропромышленного комплекса играет важную роль в рациональном использовании сельскохозяйственных ресурсов, обеспечении продовольственной безопасности, укреплении социальной стабильности и расширении экспортного потенциала. В статье научно проанализированы основные функции агропромышленного комплекса – экономические, социальные, инновационные, экологические и внешнеэкономические задачи. Также выделены закономерности развития – зависимость от природных факторов, адаптация к рыночному спросу, инновационное обновление, интеграция и адаптация к государственной политике. На примере опыта Наманганской области показаны практические результаты деятельности агропромышленного комплекса и его роль в региональном развитии.

Ключевые слова: агропромышленный комплекс, сельское хозяйство, экономическая функция, социальная функция, инновационная функция, экологическая устойчивость, внешнеэкономические связи, закономерности развития, рыночный спрос.



KIRISH

Agrotadbirkorlik faoliyati bugungi kunda milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rilmoqda. U nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan cheklanmay, balki ularni qayta ishlash, saqlash, tashish va sotish jarayonlarini ham qamrab oladi. Shu bois, agrotadbirkorlik iqtisodiy samaradorlikni oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va aholining ijtimoiy farovonligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda agrotadbirkorlik faoliyatining asosiy funksiyalari turlicha yondashuvlarda talqin etiladi. Ayrim tadqiqotchilar uni faqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish vositasi sifatida ko'rsalar, boshqalar uni bandlikni ta'minlash, daromadlarni oshirish va ijtimoiy barqarorlikka erishishning asosiy omili sifatida baholaydilar. Shu bilan birga, ekologik barqarorlik va resurslardan tejamkor foydalanish masalalari ham agrotadbirkorlik faoliyatining ajralmas funksiyalari sifatida qaralmoqda.

Agrotadbirkorlikning rivojlanish qonuniyatlari ham alohida ilmiy e'tiborni talab etadi. Bu jarayonda tabiiy omillarga bog'liqlik, mavsumiylik, bozor talabiga moslashuv, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va davlat siyosatiga integratsiyalashuv kabi jihatlar asosiy rol o'ynaydi. Namangan viloyati tajribasi shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda agrotadbirkorlik sohasi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarda, balki hududiy ijtimoiy rivojlanishda ham sezilarli natijalarga erishmoqda.

Shunday qilib, agrotadbirkorlik faoliyatining funksiyalari va rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, mamlakat agrar sohasini modernizatsiya qilish va uning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish uchun zaruriy ilmiy asos yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Agrotadbirkorlik faoliyati masalalari xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lib, ularning tahlili mazkur sohaning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur anglash imkonini beradi.

Xorijiy adabiyotlarda J. Schumpeter tadbirkorlik faoliyatining innovatsion mohiyatini tahlil qilib, ayniqsa agrar sohada samaradorlik va barqarorlik innovatsion yangilanish bilan bevosita bog'liq ekanini ta'kidlaydi [1]. P. Drucker esa tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri sifatida baholab, agrar ishlab chiqarishda yangi texnologiyalarni joriy etish zaruriyatiga urg'u beradi [2]. OECD ham o'z tadqiqotlarida agrobiznesning global oziq-ovqat xavfsizligidagi o'rnini ochib berib, qishloq xo'jaligida raqamli yechimlar va resurslardan tejamkor foydalanish istiqbollari alohida qayd etgan [3].

Mahalliy adabiyotlarda ham agrotadbirkorlik faoliyatiga oid qator ilmiy izlanishlar mavjud. Jumladan, B. Mullabayevning tadqiqotlarida agrobiznes klasterlari samaradorligi, hududiy ishlab chiqarish zanjirlari va ularning eksport salohiyatini oshirish masalalari yoritilgan [4]. I. Sirojiddinovning ishlarida esa agrotadbirkorlikda moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish va kichik biznes subyektlarini kreditlash tizimi asosiy muammolardan biri sifatida tahlil qilinadi [5]. Shuningdek, U. Tursunovning izlanishlarida agrotadbirkorlikni rivojlantirishda kadrlar salohiyatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va hududiy resurslardan samarali foydalanish masalalari asosiy e'tiborda turadi [6].

Normativ-huquqiy hujjatlar ham mavzuni chuqur tadqiq etishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, "Qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi – 2030" va "O'zbekiston – 2030" strategik dasturlari agrotadbirkorlik faoliyatini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish hamda xalqaro bozorlarga integratsiyalashuv masalalarini o'z ichiga olgan [7].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, agrotadbirkorlik faoliyatining nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilgan bo'lsa-da, Namangan viloyati sharoitida amaliy natijalarni baholash va rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shu bois, mavjud ilmiy yondashuvlarni hududiy misollarda qo'llash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ilmiy izlanishlarning asosiy yo'nalishlaridan biridir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda agrotadbirkorlik faoliyatining asosiy funksiyalari va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash uchun nazariy va empirik yondashuvlardan foydalanildi. Nazariy bosqichda xalqaro va mahalliy adabiyotlar, ilmiy maqolalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, agrotadbirkorlikning iqtisodiy, ijtimoiy, innovatsion va ekologik funksiyalari bo'yicha konseptual asoslar shakllantirildi.

Empirik bosqichda Namangan viloyati bo'yicha statistik ma'lumotlar yig'ilib, dinamik tahlil, qiyosiy tahlil va SWOT-tahlil usullari qo'llanildi. Bu orqali agrotadbirkorlikning hududiy rivojlanishga ta'siri, kuchli va zaif tomonlari hamda imkoniyat va tahdidlar baholandi. Shuningdek, ekspert baholash va qisqa intervyular orqali amaliy muammolar aniqlanib, yechim yo'llari ishlab chiqildi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi nazariy manbalarni tahlil qilish, statistik ko'rsatkichlarni hisoblash va xalqaro tajribani mahalliy sharoitlar bilan solishtirishga asoslandi. Natijalar tizimli yondashuv asosida umumlashtirilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Agrotadbirkorlik faoliyatining Namangan viloyati sharoitida rivojlanish jarayonlari statistik ko'rsatkichlar, hududiy iqtisodiy tahlil va xalqaro tajribalarni solishtirish asosida o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda viloyatda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va agrotadbirkorlik subyektlari soni izchil o'sib bormoqda. Masalan, 2020–2023 yillar davomida yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi 50 foizga yaqin oshdi, eksport hajmi esa 1,5 barobarga ko'paydi. Bu holat hududda agrotadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligi va tashqi bozorga integratsiya jarayoni tezlashayotganini ko'rsatadi.

Ijtimoiy jihatdan, agrotadbirkorlik Namangan viloyatida bandlikni ta'minlashning muhim manbai bo'lib qolmoqda. 2023-yil holatiga ko'ra, sohada 470 mingga yaqin aholi faoliyat yuritmoqda, bu esa umumiy bandlikning qariyb uchdan bir qismini tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich qishloq hududlarida daromadlarni oshirish, aholining turmush darajasini yaxshilash va migratsiya oqimini kamaytirishda agrotadbirkorlikning bevosita ijtimoiy ahamiyatini ochib beradi.

Ekologik omillar nuqtai nazaridan, viloyatda tomchilatib sug'orish texnologiyalari, resurslardan tejamkor foydalanish usullari bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Shu bilan birga, ekologik barqarorlikni ta'minlashda raqamli agroteknologiyalar va ilmiy yondashuvlarning qo'llanishi kelajakda katta imkoniyatlar yaratadi.

Xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Niderlandiya, Turkiya va Koreya kabi davlatlarda agrotadbirkorlikning samaradorligi innovatsion texnologiyalar, davlatning faol qo'llab-quvvatlashi va integratsiyalashgan klaster tizimlari orqali ta'minlanmoqda. Namangan viloyati uchun ham bu tajribani moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Agrotadbirkorlikning Namangan viloyatida rivojlanishi hududiy iqtisodiyotning barqaror o'sishi, aholi bandligini ta'minlash va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Mavjud iqtisodiy islohotlar jarayonida qishloq xo'jaligi sohasi nafaqat mahalliy bozorni ta'minlash, balki eksport salohiyatini oshirish orqali tashqi iqtisodiy aloqalarni ham rivojlantirmoqda.

Shu bilan birga, agrotadbirkorlik faoliyati iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy barqarorlik va ekologik muvozanat kabi uch asosiy yo'nalishda o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Hududda yaratilayotgan imkoniyatlar bilan bir qatorda, mavjud muammolarni tizimli yondashuv asosida hal qilish zaruriyati ham dolzarbdir.

Namangan viloyatida agrotadbirkorlikning bugungi holatini tahlil qilish, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, imkoniyatlar va xavf-xatarlarni baholash kelajakdagi rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda quyida SWOT tahlil taqdim etiladi.

<p>Kuchli tomonlar (Strengths): Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga tabiiy iqlim sharoitining qulayligi. Mehnat resurslari ko'pligi va aholining tajribasi. Hududda mavjud ekin maydonlari va yer resurslarining kengligi. Mahalliy mahsulotlarga ichki bozor va eksport bozorlarida talab yuqoriligi.</p>	<p>Zaif tomonlar (Weaknesses): Sug'orish tizimlarining eskirganligi va suv resurslaridan foydalanish samaradorligining pastligi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etishda moliyaviy resurslarning yetishmasligi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoati sust rivojlanganligi. Marketing, logistika va brend yaratish bo'yicha tajribaning cheklanganligi.</p>
<p>Imkoniyatlar (Opportunities): Tomchilatib sug'orish, raqamli agroteknologiyalar va smart farming tizimlarini keng joriy etish. Xalqaro tajriba asosida agroklasterni rivojlantirish va kooperatsiyalarni kengaytirish. Eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish, xususan, Yevropa va Osiyo bozorlariga chiqish. Davlat tomonidan subsidiyalar va imtiyozli kreditlar orqali qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari.</p>	<p>Xavf-xatarlar (Threats): Iqlim o'zgarishi va suv tanqisligining kuchayishi. Yerlarning sho'rlanishi va ekologik muvozanatning buzilishi. Global bozorlarda raqobatning kuchayishi. Moliyalashtirish va investitsiya oqimlarining yetarli emasligi.</p>

Namangan viloyatida agrotadbirkorlik faoliyati iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. SWOT tahlil natijalari ko'rsatadiki, mavjud kuchli tomonlardan oqilona foydalanish, zaifliklarni bartaraf etish va mavjud imkoniyatlardan kengroq foydalanish orqali sektorning samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Kelajakda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, klaster tizimini yanada rivojlantirish, innovatsion yechimlarni keng joriy etish hamda ekologik xavf-xatarlarga qarshi kompleks choralarni qo'llash viloyat agrotadbirkorligining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlaydi.

Umumlashtirilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, Namangan viloyatida agrotadbirkorlik faoliyati iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, mavjud



imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, klaster tizimini yanada rivojlantirish va innovatsion yechimlarni keng joriy etish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot va tahlillar agrotadbirkorlik faoliyatining Namangan viloyati iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Statistik ko'rsatkichlar, qiyosiy tahlillar va xalqaro tajriba asosida shuni ta'kidlash mumkinki, sohaning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki bandlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qilmoqda. Shundan kelib chiqib, quyida ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy takliflar taqdim etiladi.

Agrotadbirkorlik faoliyati Namangan viloyati iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ta'minlamoqda, balki ularni qayta ishlash, eksport qilish va qo'shimcha qiymat yaratishda ham yetakchi rol o'ynamoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2020–2024 yillar davomida viloyatda agrotadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi va eksport ko'rsatkichlari izchil ravishda oshib borgan. Bu jarayon hududning iqtisodiy salohiyatini kengaytirgan hamda qishloq joylarda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlagan.

Ekologik barqarorlik nuqtai nazaridan, resurslardan samarali foydalanish bo'yicha ijobiy natijalar kuzatilayotgan bo'lsa-da, suv taqchilligi va yerlarning sho'rlanishi kabi muammolar hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, agrotadbirkorlik samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalar, raqamli boshqaruv tizimlari va klaster asosidagi integratsiya hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Agrotadbirkorlik faoliyatining hozirgi holati va tahlil natijalari ushbu sohada mavjud muammolarni hal qilish va istiqboldagi imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqishni talab etadi. Shuning uchun, quyida Namangan viloyatida agrotadbirkorlikni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladigan ilmiy asoslangan amaliy takliflar bayon etiladi.

Hududda agrotadbirkorlikni rivojlantirish uchun suv-tejamkor texnologiyalar, raqamli agroxizmatlar va zamonaviy monitoring tizimlarini keng joriy qilish lozim.

Agrotadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozli kreditlar, lizing asosida texnika ta'minoti va investitsion dasturlarni kengaytirish zarur.

Klaster tizimini yanada rivojlantirish orqali ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika va eksportni yagona zanjir asosida integratsiyalash tavsiya etiladi.

Qishloq xo'jaligi sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash maqsadida ta'lim muassasalari bilan agrotadbirkorlik subyektlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, dual ta'lim tizimini joriy etish lozim.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirib, xorijiy texnologiyalarni transfer qilish, qo'shma korxonalar tashkil etish va eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Agrotadbirkorlikda raqamli platformalar va elektron savdo tizimlarini shakllantirish orqali vositachilik xarajatlarini kamaytirish va ishlab chiqaruvchilar daromadini oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, agrotadbirkorlikni rivojlantirish viloyat iqtisodiy salohiyatini oshirish, aholining turmush darajasini yaxshilash va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni kuchaytirishning muhim omili hisoblanadi. Taklif etilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish orqali Namangan viloyatida agrar sektorning barqaror rivojlanishi ta'minlanib, milliy iqtisodiyotning umumiy barqarorligiga ham sezilarli hissa qo'shilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Schumpeter, J. *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press, 1934.
2. Drucker, P. *Innovation and Entrepreneurship*. HarperBusiness, 1985.
3. OECD. *Innovation, Productivity and Sustainability in Food and Agriculture*. Paris: OECD Publishing, 2019.
4. Mullabayev, B. *Agrobiznes klasterlari samaradorligi*. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Sirojiddinov, I. *Agrotadbirkorlikda moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish masalalari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021.
6. Tursunov, U. *Agrobiznesni innovatsion rivojlantirish yo'llari*. Namangan: NDTU nashriyoti, 2022.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi – 2030" Farmoni, 2020-yil.
8. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). BILIMLAR IQTISODIYOTI SHAKLLANISHINING USTUVOR YO'NALISHLARI. *Journal of new century innovations*, 74(2), 65-70.
9. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). INNOVATION FAOLIYATNING MOLIYAVIY TA'MINOTINI KUCHAYTIRISH ZARURLIGI VA OMILLARI TAHLILI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 5(03), 142-146.
10. Xolmirzayev, U. B. (2024). Bilimlar iqtisodiyoti jamiyat taraqqiyotini zamonaviy bosqichining asosidir. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(6).
11. Xolmirzayev, U. B. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti va fan sohasi tushunchalari tizimining xususiyatlari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(11-12).



12. Xolmirzayev, U. B. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti shakllanishi evolyutsiyasini tavsiflovchi nazariy yondashuvlar. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(10).
13. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. Ilmiy monografiya. Toshkent–2023.
14. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirzayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. Tashkent" economics-finance"—2013.
15. Abdulazizovich, X. U. B. (2024). MOLIVAVIY AKTIVLAR TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(2), 82-86.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>